



SHAYBONIYLAR DAVRI MADANIY MEROS- OBYEKTLARINI TA'MIRLASH (KALON MASJID MISOLIDA)

Turgunova Fazilat Normurodovna¹, Jumaev Feruz²

¹ Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
tayanch doktoranti

² Turin Politexnika universiteti magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7233420>

ARTICLE INFO

Received: 03rd October 2022

Accepted: 10th October 2022

Online: 19th October 2022

KEY WORDS

madaniy meros, ta'mirlash,
masjid, peshtoq, gumbaz,
galereya

ABSTRACT

Mazkur maqolada Shayboniylar davri madaniy meros obektlarini ta'mirlash masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, Buxorodagi Kalon masjidi haqida ham takidlab o'tilgan.

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish hamda tartibga solish, tarix va madaniyat yodgorliklarini har tomonlama o'rganish, ommalashtirish va targ'ib qilish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida(1) bugungi kunga kelib ko'pgina ishlar bajarildi. 2015 yilda Samarqand shaxrining madaniy meros obyektlarini tadqiq etish, konservasiya, restavrasiya qilish va ulardan maqsadli foydalanish dasturini(2) amalga oshishi bilan madaniy meros obyektlarini restavrasiya qilish borasida amalga oshirilgan salmoqli ishlar buning yorqin namunasidir. Shu bilan bir qatorda 2018 yil O'zbekiston boy tarixiy va madaniy merosini muhofaza qilish, ilmiy o'rganish, targ'ib qilish va boyitib borish borasida qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Hozirgi kungacha saqlanib qolgan Kalon masjidi qurilishi XIV asr, Temur nabirasi Ulug'bek hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Bu haqida binoning texnik va

uslubiy xususiyatlari ma'lumot bersada, uning peshtoqiga - 1514 yil sanasi yozilgan va N.B.Nemsova taklifiga ko'ra, bu koshinkorlik ishlarini nixoyasiga yetkazilgan sanasidir(3). Masjid territoriyasida o'tkazilgan qazishmalar (1954-1963 yillarda), uning XV asrda (K.S. Kryukov va S.N. Yurenev ma'lumotlari) minora bilan bir vaqtda yoki undan bir oz keyinroq juda katta inshoot o'rniga qurilganligidan dalolat beradi.

Kalon masjidi O'rta Osiyodagi eng yirik masjidlardan biri bo'lib, u an'anaviy O'rta Osiyodagi jomye masjidleri turi rivojini davom ettiradi va tarxi bo'yicha xovlili kompazisiyali to'g'riburchakli inshootni namoyon etadi. Xovlining perimetri bo'yicha ustun gumbazli konstruksiyali (208 ustun, 288 gumbaz) usti yopik galeriyalar joylashgan. Sharqdan - g'arbgacha binoning uzunasi bo'ylab joylashgan o'qning sharqiy tomonida asosiy kirish peshtoqi, uning qarshisidagi g'arbiy tomonda esa masjidning baland havorang



gumbazli binosi - maqsura o'rin olgan. Xovlining to'rt tarafidagi ayvonlar naqshinli peshtoq bilan bezatilgan. Sharq tomondagi ayvon kattaligi va muxtasham qoplama bezagi bilan ajralib turadi. Masjidning baland katta xonasi ham shu yerda bo'lib gumbaz bilan yopilgan. Peshtoqning ortidan chiroyli moviy gumbaz ko'rinib turadi. Bu yerda ayniksa nafis naqshlar bilan bezatilgan mehrob (XVI asr) diqqatni jalb etadi. Jimjimador bezaklar orasida me'mor Bayozid Puroniyning nomi yozilgan.

Peshtoq oldida XX asr boshlarida xalq me'mori Usta Shirin Murodov qurgan sakkizyoqli usti gumbaz bilan yopilgan shinam shiypon bor.

Masjidi Kalonning tashqariga qaragan yalang devori juda qalin qilib ishlangan. Asosiy fasad tomoning devorlari esa ravoqsimon tokchalarga o'xshatib ishlangan. Peshtoqning naqshinkor bezaklari saqlanmagan, keyincha peshtoq silliq qilib suvab yuborilgan.

M.K.Axmedovning yozishicha, XVI - XVII asrlarda Buxoro majmualar qurilishida O'rta Osiyo uchun an'anaviy bo'lgan madrasa masjid bilan «juft» va «qo'sh» usullar «birinchi bo'lib juft juft qilib ishlatildi»(4), majmualar yaratishda binolarni bir - biriga yakin va o'zaro paralel o'klar bilan joylashtirish kerak bo'ldi. Shunday qilib 1530 - 36 yillari (hijriy 936 - 42) Kalon masjidi qarshisida «qo'sh» kompozision usul bilan bir o'q bo'ylab Miri Arab madrasasi qurilgan.

Ta'mir ishlari bo'yicha ilk ishlar Moskva Arxitektura instituti ilmiy xodimlari brigadasi tomonidan 1938 yilda o'lchov ishlarini olib borgan. 1953 yil ilmiy rejasi asosida Kalon masjidini ta'mirlash borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Masjid o'lchovlari kaytadan aniklashtirildi, shurf va zondajlar ishlab chikildi. Shuningdek masjid

gumbazi o'lchovlari olinib, masjid galleriyasini umumiy mustahkamligini ta'minlash borasida aloxida loyiha ishlab chikildi. Masjidning texnik holati va boshka amalga oshiriladigan ishlar borasida me'mor I.I Notkin boshchiligida kengaytirilgan yozma akt bayon etildi(5).

Yanada qiziqroq natijalar shurflar bilan olib borilgan qazilma ishlarida kuzatildi. Shurflar buyicha arxeologik ishlarni me'mor S. Yurenev boshchiligida olib borildi. Shurflar binoning konstruktiv mustahkamlik holatini, fundament chuqurligi, g'ishtlar xajmi va ishlatilgan qorishmalar turini aniqlash maqsadida qullanildi. Shurflar orqali ilmiy ishlar olib borish obyektning necha yilligini aniqlashtirishda keng yordam berardi.

Me'mor Yurenev ushbu macjid qurilishining uch bosqichini arxeologik izlanishlar orqali aniqlashtirdi: birinchi bo'lib bu masjid 1120 yilda yog'ochdan quriladi, ikkinchi marotaba XIII asr oxiri-XIV asr boshlarida qayta tiklanadi va so'nggisi hozirgi ko'rinishdagi masjid deb hisoblandi. Qilingan barcha ta'mir ishlari uchinchi masjid ustida bo'lib o'tgan(6).

1950 yillar o'rtalarida Miri Arab va Kalon madrasalari hovlisida grunt suvlari namligi hisobiga hovli cho'kadi. Kalon masjidi hovlisi qo'shimcha tuproq bilan tekislanib kvadrat pishiq g'ishtlar terildi. Ta'mir ishlari juda o'rinli olib borilganligi uchun hovligi yotqizilgan pishiq g'ishtlar haligacha yaxshi saqlanib qolgan. Bosh sharqiy fasad portali koshinlari, portal yon qanotlari va portalning tugallanish qismi 1978 yilda ta'mirdan chiqarildi. Shimoliy devor fasadlari remont shtukaturkalaridan tozalandi. Gumbaz galleriyasida ustunlar va gumbaz ta'mirdan chiqarildi.

Masjidning hovli qismi 60 yillar boshlarida me'mor T. Ikramov loyihasi



asosida ta'mirlandi. Katta gumbazli zal interyeridagi koshinlar va olti qirrali sirlangan plitkalarining yo'qotilgan qismlari qayta tiklandi. G'arbiy hovli portalidagi yuqotilgan sirlangan koshinlar va katta timbandagi bezaklar ta'mirlandi.

Gumbaz va barabanning konstruktiv mustahkamligi ta'minlandi. Gumbazdagi arabiy yozuvlar arabshunos olim X.Soliyev bilan hamkorlikda ta'minlandi. Yozuvlar foni ko'k rangda, asosiy matn muhakax yozuvida oq rangda yozilgan edi. Ba'zi joylardagi kufiy yozuvlariga tilla suvi yuritilgan bo'lib o'simliksimon ornamentlar moviy rangda ta'mirlandi(7).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1996 yil 22 maydagi farmoniga ko'ra Buxoro shahrining 2500 yilligiga Kalon masjidi me'moriy majmuasini ta'mirlash va qayta tiklash ishlari amalga oshirildi. Ta'mirlash ishlarini arxiv materallari orqali kuzatishimizda bir qancha qoniqarsiz va salbiy fikrlar bayon etilgan edi. Ta'mir ishlarida tuzilgan rasmiy xatlarni kuzatar ekanmiz, u yerda bir qancha me'morlarning salbiy fikrlari bayon etilganligini ko'ramiz:

- ta'mirlash instituti xodimlari ilk noroziliklariga sabab loyiha asosiga kiritilgan, bir necha bor so'ralgan bo'lishiga qaramay masjidning katta gumbazli xona ichiga va fasadlariga ta'mirlash uchun vaqtida havozalar to'g'ri o'rnatilmay ta'mir jarayonlari kechiktirilgan.

- institut tomonidan taqdim etilgan smeta hujjatlari o'z vaqtida ko'rib chiqilmay (geologik tadqiqotlar uchun, arxeologik izlanishlar uchun, shimoliy-sharqiy bo'limlarni ta'mirlash ilmiy loyiha hujjatlarini tayorlash uchun smeta) o'zboshimchalik bilan ta'mir ishlari boshlab yuborilgan(8).

Bundan tashqari Kalon masjidida mualliflik nazoratini o'tkazish vaqtida ta'mir ishlarida bir qancha kamchiliklar yuz bergani aniqlandi. Masjid gallereyasining gumbaz ravoqlari, bag'al, devor va ustunlari sirti ganch bilan suvash ishlari tartib bilan: oldin qora suvoq qilinishi kerak edi. Lekin yodgorlikda esa birdaniga bir yo'la toza suvoq qilinishi natijasida ganch qotar-qotmas sarg'ayib, palaxsa-palaxsa bo'lib tushgan. Suvash vaqtida sifatsiz ganch ishlatilganligi, ishlarni malakali ustalar tomonidan olib borilmaganligi, suvash texnologiyasiga to'la amal qilinmaganligi hamda sifatsiz olib borilganligi sababli bajarilgan suvoqlarda yoriqlar paydo bo'lib, hozirgi kunda ko'pgina yerlari ko'chib tushgan. Bajarilgan sifatsiz ishlarni to'xtatish yoki to'g'rilash haqidagi loyiha mualliflarining bir necha bor qilayotgan so'rov va talablari e'tiborsiz qolgan.

Masjid honaqqohining tashqi gumbaziga rangli koshin g'ishtchalar yopishtirilgan bo'lib, bu yopishtirilgan koshinlarning ma'lum qismi o'zining asl rangidan farq qilgan bo'lib, ba'zi birlarining sirtida mayda yoriqchalar va ko'chgan yerlari bor. Eng asosiysi bu koshin g'ishtchalar o'zida ishlatilgan to'g'ri shakldagidek ishlanmay, negadir tashqi ko'rinishi egik-yoysimon ko'rinishga ega. Muqarnas ostida joylashgan turli belbog' koshinlar ham yoysimon shaklda pishirilgan edi. Bunday egik-yoysimon koshinlarni faqat kichik hajmdagi gumbazlardagina ishlatish mumkin edi.

Shuningdek janubiy hovli fasadida joylashgan qanos ham ta'mirdan chiqarilgan. Qanosdagi qora chiziqlar turli yo'g'onlikda, shakldor gul bezaklar, barg va shoxchalar beo'xshov ko'rinishda chizilgan. Bir gulning rangi ikkinchi gul rangi bilan qo'shib ketgan yoki uzilib qolgan. Koshin



g'ishtchalarining ba'zi birlari o'z ko'inishini yo'qotib, qiyshayib ketgan. Bir so'z bilan aytganda timpandagi gullarni go'yo endi naqsh chizishni o'rganayotgan maktab o'quvchi bolasi chizayotgandek ko'rinadi. Bulardan tashqari yodgorlikda ko'plab naqsh qoldiqlari saqlanib qolgan. Yangitdan tayyorlangan timpan ranglarini iloji boricha yaqinlashtirib tayyorlash kerak edi. Bu yerda esa saqlanib qolgan naqshlar o'rganilmaganligi yaqqol sezilib turardi. Kalon masjidining g'arbiy hovli fasadidagi katta honaqoh peshtoqi "P" shaklidagi arabiy yozuv ham qayta tiklandi. Arabiy yozuvlar Toshkent shahrida joylashgan "Koshin" korxonasida tayyorlangan. Buxoro ta'mirlash ustaxonasi tayyorlangan mahsulot sifatini aniqlamagan holda Buxoroga olib borgan. Koshin mahsulotini o'ng boshlanish qismi berilgan loyiha shablonga nisbatan 20 mm.ga kichik, oxirgi yakunlanish qismi esa 30mm.ga katta bo'lib chiqqan. Joyida saqlanib qolgan asliy koshinlardagi yozuvlarni yangi tayyorlangan koshin arabiy yozuvlar maxsulotlarining ayrim harf va naqshlari biri ikkinchisiga to'g'ri kelmaydi. Shu sabablar bo'lsa ham mahsulot yodgorlikka montaj qilingan(9).

Masjidi Kalon O'rta Osiyodagi saqlanib qolgan yirik masjidlardan biridir. Masjidding oddiy va ayni vaqtda maxobatli shakllari arxitektura jixatidan bir butundir. Bu masjid Samarqanddagi Bibixonim masjidiga o'xshash kompozision tuzilishi jixatidan qadimiy tipda qurilgan(10).

Uzoq vaqt mobaynida masjidda yirik ta'mirlash va qayta qurish ishlari olib borilgan. Yani, XVI asrda asosiy peshtoq qaytadan bezatildi, masjidning pollari ko'tarildi. Shu sababli ham sirlangan mayolika tasvirlari yo'qotib yuborildi. Shuningdek mehrob guldor sopol mozaykalar bilan qaytadan qoplandi. Shunga qaramasdan uning tarixi o'zgarishsiz koldi.

Buxoro shahridagi Shayboniylar davrining serqirra va qadimgi me'morchiligining noyob namunasi hisoblanmish Kalon masjidining ta'mir jarayonlarini tadrijiy asosda o'rganish va uni saqlab qolish borasidagi restavrasiya ishlarini kuzatib, nazariy va amaliy ahamiyatini to'laqonli yoritib berish, shuningdek tarixiy ko'chmas obyekt sifatida muzeylashtirilish hamda turizm infrastrukturasida foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

References:

- 1.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 29 июлдаги “Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 269-сон қарори, (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2002 й., 14-сон, 113-модда; 2004 й., 22-23-сон, 267-модда; 2005 й., 27-сон, 191-модда; 2011 й., 7-8-сон, 66-модда; 2014 й., 30-сон, 372-модда; 2017 й., 19-сон, 345-модда).
- 2.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 7 июндаги “2015 йилгача Самарқанд шаҳрининг маданий мерос объектларини тадқиқ, консервация, реставрация қилиш ва улардан мақсадли фойдаланиш дастури тўғрисида”ги 164-сон қарори.
3. Немцова Н.Б. Мечеть Калян в г. Бухаре. (Историческая справка). – Т., 1960. Архив Глав НПУ памятников культуры по делам МК РУз. Б.2151/ Н 50, с.-7



- 4.Ахмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1995 – с.127
- 5.Ноткин И.И Отчёт о научном надзоре во время командировки в.г. Бухару 1953г. Архив ГлавНПУ памятников культуры по делам МК Уз. Б 54 / Р 56
- 6.Фрейтаг А.И. Краткие выписки из литературных источников по мечети Калян. Т., 1959. - Архив Глав НПУ памятников культуры по делам МК Уз. Б 2011 / Ф86.
- 7.Немцова Н.Б. Историческая справка по мечети Калян. Т., 1960. - Архив Глав НПУ памятников культуры по делам МК Уз. Б 2151 / Н50.
- 8.Таъмирлаш институти директори Р.Э Асамовнинг Маданият Ёдгорликларини сақлаш Бош Бошқармаси бошлиғи Б.М Усмоновга юборилган 01/111 сонли хатидан
- 9.Министерство по делам культуры республики Узбекистан АООТ «Таъмиршунослик» Книга 2 Научно реставрационный отчёт по памятникам архитектуры г Бухары- Т., 1997.- Архив Глав НПУ памятников культуры по делам МК Уз. Б 16 / К 72.
- 10.Ахмедов М. К. Архитектурные ансамбли и вопросы организации городского пространство и средневековом зодчестве Средней Азии.// Культура Среднего Востока – развитие, связь и взаимодействия (с древнейших времён до наших дней). Градостроительство и архитектура.- Т.: Фан, 1989.-с. 151-165.